



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 68 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнали

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv.....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	

BOLALARDA NUTQ KAMCHILIKLARI: ETIOLOGIYA, RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ERTA ARALASHUV

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti,
Defektologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalardagi nutq kamchiliklari, ularning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, nutq buzilishlarini erta aniqlash, ularni korreksiya qilish va logopedik-pedagogik yondashuvning ijobji jihatlari asoslab berilgan. Mazkur tadqiqot natijalari defektologiya sohasidagi mutaxassislar hamda ota-onalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Nutq kamchiligi, nutq buzilishi, fonetik-fonematisk rivojlanish, duduqlanish, dislaliya, dizartriy, rinolaliya, alaliya, afaziya, disleksiya, disgrafiya, logopediya, tuzatish pedagogikasi, bolaning nutqiy rivojlanishi.

Abstract: This article explores speech disorders in children, highlighting their causes and developmental stages. Particular attention is given to early diagnosis, corrective interventions, and the advantages of an integrated speech therapy and pedagogical approach. The presented findings can be beneficial for both specialists and parents interested in supporting children's speech development.

Key words: Speech disorder, speech deficiency, phonetic-phonemic development, stuttering, dyslalia, dysarthria, rhinolalia, alalia, aphasia, dyslexia, dysgraphia, speech therapy, corrective pedagogy, child speech development.

Аннотация: В статье рассматриваются речевые нарушения у детей, причины их возникновения и этапы речевого развития. Особое внимание уделяется ранней диагностике нарушений речи, коррекционным мерам и логопедико-педагогическим подходам. Представленный материал может быть полезен как для специалистов, так и для родителей, заинтересованных в развитии речевых способностей ребёнка.

Ключевые слова: Речевая недостаточность, речевое расстройство, фонетико-фонематическое развитие, заикание, дислалия, дизартрия, ринолалия, алалия, афазия, дислексия, дисграфия, логопедия, коррекционная педагогика, речевое развитие ребёнка.

KIRISH

Bolaning nutqi kattalar nutqiga taqlid asosida rivojlanadi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilarning nutqiga, to'g'ri nutq muhiti va ta'limg-tarbiyasiga bevosita bog'liq. Nutqning to'g'ri shakllanishi, avvalo, bolaning atrofdagilar bilan bo'lgan muloqoti, eshitgan nutqiy tajribasi, sog'lom nutq muhiti hamda ta'limg-tarbiyaga bog'liq hisoblanadi. Nutq tug'ma qobiliyat emas, u bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishiga bog'liq holda, hayot jarayonida rivojlanadi. Bola nutqining buzilishlarini to'g'ri tushunish va o'rghanish uchun uning nutqiy rivojlanish bosqichlarini, bu jarayonga xos xususiyatlarni va nutqning to'laqonli shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur anglashimiz lozim. Aynan bola nutqining rivojlanish davrlarini aniqlik bilan bilish, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nutqiy muammolarni erta bosqichda aniqlash va oldini olish imkonini yaratadi.

G. L. RozengradPupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- tayyorlov davri – 2 yoshgacha;
- nutqning mustaqil shakllanish davri.

Mashhur rus psixolog A. N. Leontev bola nutqining shakllanish jarayonini to'rtta asosiy davrga ajratib o'tgan:

1. **Tayyorgarlik davri** – bu davr bola tug'ilgandan taxminan bir yoshgacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. Unda bola atrofdagi tovushlarga, ohanglarga e'tibor qaratadi, tovushlarni eshitish va ularni farqlash qobiliyatlari shakllanishni boshlaydi.

2. **Bog'chagacha bo'lgan davr** – taxminan 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda bola so'zlarni idrok etish, oddiy so'zlar va iboralarni aytish, so'z boyligini kengaytirish bilan ajralib turadi.
3. **Maktabgacha davr** – taxminan 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo'lgan davr bo'lib, bu bosqichda bolaning og'zaki nutqi faol rivojlanadi, grammatik tuzilmalarni o'zlashtiradi va muloqotda mustaqillik ortadi.
4. **Maktab davri** – bu bosqich maktabga qadam qo'ygan vaqtidan boshlanib, bola nutqining ongli, izchil, mantiqiy va yozma shakkarda rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Bola tug'ilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq, lekin aynan shu qichqiriq va yig'i nutq apparatining nafas olish, ovoz hosil bo'lish va artikulyatsion bo'limlarni rivojlantrishda muhim rol o'ynaydi. Ikki haftadan so'ng bola gapirayotgan odamning ovoziga e'tibor bera boshlaydi. Bola hayotining dastlabki oylaridanoq nutqiy rivojlanishga asos solinadi. Taxminan 5 oylikdan boshlab u atrofdagi tovushlarga e'tibor bera boshlaydi, kattalarning lab harakatlari va artikulyatsion harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qilishga harakat qiladi. Bola tomonidan biror harakatning ko'p marotaba takrorlanishi esa ushbu harakatga doir ko'nikmaning shakllanishi va mustahkamlanishiga olib keladi. 6 oylikdan boshlab bola tovushlarni takrorlash orqali birinchi bo'g'inli tovushlarni talaffuz qila boshlaydi: "na-na-na", "da-da-da", "pa-pa-pa", "be-be-be" kabi tovushlar aynan shu davrda shakllanadi. Hayotining ikkinchi yarim yilligida esa bola ayrim tovushlar birikmasini eshitib idrok qilishga, ularni predmetlar yoki harakatlar bilan bog'lashga harakat qiladi. 7–9 oylikda bola kattalarning nutqiga taqlid qilishga urinadi, bo'g'inli tovushlarni takrorlab aytta boshlaydi. 10–11 oylik davrga kelib esa bola so'zlarga nisbatan sezilarli reaksiya bildirishni boshlaydi. Bu holat gapiruvchining ohangiga yoki holatga bog'liq bo'lmaydi – bola aynan so'zning o'ziga e'tibor qaratadi va unga nisbatan ma'lum darajada tushunish reaksiysi namoyon bo'ladi.

Bog'chagacha bo'lgan davr (1 yoshdan 3 yoshgacha) – bola nutqining faol rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda tayyorgarlik davri tugab, faol nutqni egallash jarayoni boshlanadi. Bolada dastlabki so'zlar paydo bo'lganidan so'ng, u atrofdagilarning artikulyatsion harakatlariga e'tibor bera boshlaydi, kattalar so'zlarini ko'p marotaba takrorlaydi va mustaqil ravishda talaffuz qilishga urunadi. Bola hayotining 2–3 yillariga kelib, uning so'z boyligi sezilarli darajada oshadi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, bu davrda lug'at boyligi quyidagi tarzda oshadi: 1 yosh 6 oyligida taxminan 10–15 ta so'z, 2 yoshning oxiriga kelib 300 ga yaqin so'z, 3 yoshga to'lganda esa 1000 tagacha yetadi. Bu esa bola nutqining faolligi ortayotganini, eshitilgan va idrok etilgan so'zlarni mustaqil qo'llashga o'tayotganini anglatadi. Uch yoshga yaqin bola nutqining grammatik tuzilishi rivojlanib boradi. Dastlab u o'z ehtiyoj va istaklarini bitta so'z bilan ifodalashni boshlaydi. Keyinchalik esa oddiy 1–2 so'zdan iborat sodda gaplarni tuzib, muloqotda faol qatnasha boshlaydi. Shu tariqa, bolada nutqning leksik, fonetik va grammatik jihatdan o'sish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlnana boshlaydi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarda nutqning fonetik rivojlanishi bosqichma-bosqich shakllanadi. Birinchi o'rinda ular artikulyatsiya nuqtai nazaridan eng oson talaffuz etiladigan lab va lab-til undoshlari – p, b, m, f, v kabi tovushlarni talaffuz qilishni o'rganadilar. Bu tovushlarning talaffuzi oddiyoq bo'lib, bolalar tomonidan nisbatan yengil o'zlashtiriladi. Biroq artikulyatsion jihatdan murakkabroq bo'lgan shivirlovchi (s, z, sh, j), sirg'a-luvchi (ch) va sonor (r, l) tovushlarni, shuningdek, til orqa tovushlari (k, g) ni to'g'ri talaffuz qilish bolalar uchun ma'lum darajadagi qiyinchilikni tug'diradi. Shu sababdan, bu tovushlar ko'pincha noto'g'ri talaffuz qilinadi yoki umuman talaffuz qilinmaydi. Bu holat fonetik-fonematik rivojlanish jarayonining tabiiy bosqichi sifatida qaraladi. Maktabgacha yosh davrida bola lug'at boyligini faol ravishda ko'paytirishda davom etadi. Taxminan 4–6 yosh oralig'ida bolaning faol (aktiv) so'z boyligi 3000–4000 ta so'zgacha ortadi. So'z zaxirasining ortishi bilan birga nutqning grammatik tomoni ham rivojlnana boshlaydi. Bola gap tuzish qoidalarini o'zlashtiradi, fe'l zamonlari, son, egalik va kelishik kabi grammatik birliklarni to'g'ri qo'llashni o'rganadi. Bu esa nutqning mantiqiy, izchil va to'liq bo'lishida ahamiyatli omildir.

To'rtinchi davr – maktab davri bo'lib, 7 yoshdan 17 yoshgacha davom etadi. Bu davrning o'ziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlardagiga nisbatan ongli ravishda amalga oshadi. Bu davrda bolalar tovushlar tahlili va nutqning grammatik qonuniyatlarini egallaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi – yozma nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Bola nutqining rivojlanishi jarayoni o'z vaqtida to'g'ri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarur. Buning uchun bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog' bo'lishi, normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi, normal eshitishi va ko'rishi, yetarli darajada ruhiy faoliyotka ega bo'lishi, gapirish ehtiyojiga ega bo'lishi hamda to'g'ri nutq muhitida tarbiyalanishi kerak. Bolada nutqning normal rivojlanishi uning atrof-muhit haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga, yangi tushunchalarni tez va samarali o'zlashtirib olishiga zamin yaratib beradi. Shunday qilib, nutqning shakllanishi va rivojlanishi tafakkurning, ya'ni aqliy faoliyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq buzilishlarini neyropsixologik yondashuv asosida o'rganishda T. V. Axutinoy va N. M. Pilaevaning neyropsixologik diagnostika haqidagi izlanishlari muhim ahamiyatga ega. Ular boshlang'ich yoshdag'i bolalarning nutqiy rivojlanishini neyropsixologik profil asosida baholash zarurligini asoslab, tizimli korreksiya metodlarini ilgari surgan. Shu bilan birga, V. I. Seliverstov logopedik amaliyotda zamонави multimodal yondashuvlar – masalan, interaktiv metodlar, AKT va sensomotor mashqlarni joriy etishni samarali deb hisoblaydi.

R. E. Levinanining bolalardagi nutq buzilishlarini psixologik-pedagogik jihatdan tasniflashga doir tadqiqotlari bu boradagi ilmiy yondashuvga asos bo'lgan. U nutq buzilishlarining asosiy turlarini aniqlashda bola rivojlanish bosqichlari va individual psixofiziologik holatini chuqur tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Mahalliy mualliflardan M. A. Ziyayeva esa logopedik amaliyotda erta aralashuv muhimligini ilmiy asoslagan bo'lib, bolalarda nutqiy buzilishlarni aniqlashda multidisiplinar diagnostika usullariga alohida urg'u bergen.

Ismatova va Xamidovaning "Logopediya" qo'llanmasida bolalarda fonetik-fonematisk rivojlanish buzilishlari, duduqlanish va alaliya kabi buzilishlarni aniqlash va korreksiya qilish bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar berilgan. Ularning ishida O'zbekiston sharoitiga mos yondashuvlar aks ettilrilgan. Shuningdek, A. T. Rasulov va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan metodik qo'llanmalar defektologik yondashuvni logopedik amaliyot bilan uyg'unlashtirishda muhim o'r'in egallaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar haqida ma'lumotlar empirik kuza-tish, diagnostik suhbatlar va logopedik baholash testlari orqali yig'ildi. Kuzatuvlar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilib, bolaning nutqiy faoliyati, tovush talaffuzi, so'z boyligi va grammatik tuzilmani qo'llash darajasi baholandı. Shuningdek, mutaxassis-logopedlar va ota-onalar bilan yarim strukturaviy suhbatlar o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar sifat jihatdan tahlil qilinib, umumiyl holatlardan tematik guruhlarga ajratildi. Statistik tahlilda esa aniqlangan nutq buzilish turlari soni va ularning yoshga bog'liqligi bo'yicha nisbatlar chiqarildi. Bu yondashuv holatlarning takroriyligini aniqlash, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va individual korreksiya zaruratlarini belgilash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Logopediya fanida nutq kamchiliği muayyan til normalaridan og'ish, ya'ni tovushlarni, so'zlarni yoki gap tuzish qoidalarini buzgan holdagi nutqiy faoliyat sifatida bayon qilinadi. Bunday kamchiliklar bir qator muhim xususiyatlar bilan alohida ko'zga tashlanadi:

- Nutq kamchiliği o'z-o'zidan bartaraf bo'lmaydi, aksincha, vaqt o'tishi bilan mustahkamlanib boradi va yanada chuqurlashadi.
- Nutq nuqsonlarining kattalarda ham saqlanib qolishi, ularning yoshiga mos bo'lmagan nutqiy darajada bo'lishi bilan namoyon bo'ladi.
- Nutqida kamchilikka ega bo'lgan shaxslar logopedik yondashuv va mutaxassis yordamiga muhtoj bo'ladilar.
- Og'ir nutq kamchiliklari bolaning nafaqat nutqiy faoliyatiga, balki uning umumiyl psixik, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun nutq kamchiliklarini erta aniqlash, ularni to'g'ri baholash va logopedik korreksion ishlarni tizimli olib borish bolaning har tomonlama sog'lom shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek, atrof-muhitning tashqi sharoitlari farqlanadi. Nutq nuqsonining turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyutsion-dinamik yondashuv muhim. Bu jarayonda asosiy e'tibor nutq nuqsonining kelib chiqish mexanizmini tahlil qilishga, shu bilan birga, bolaning har bir yosh davridagi nutqiy rivojlanish qonuniyatlarini va umumiyl anomal rivojlanish belgilarini hisobga olishga qaratiladi.

I. M. Sechenov, L. S. Vigotskiy va V. I. Lubovskiyarning ilmiy qarashlariga ko'ra, bolalarda nutq buzilishlariga olib keluvchi asosiy omillardan biri – embrional rivojlanish davrida yuzaga keladigan turli xil patologik holatlardir. Nutq rivojlanishiga ko'plab tashqi va ichki omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin deb hisoblanadi. Ayrim holatlarda bu omillar bolaning muayyan rivojlanish bosqichlarida namoyon bo'lib, nutqning shakllanish



jarayoniga sezilarli darajada to'sqinlik qiladi. Shu sababdan, nutq buzilishlariga sabab bo'lvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat deb sanaladi:

- rivojlanish davridagi turli patologiyalar, ya'ni homila davrida yuzaga keladigan salbiy omillar;
- homiladorlik davridagi toksikoz, onaning virusli va endokrin kasalliklari, jismoniy shikastlanishlar, qonning rezusiga mos kelmasligi;
- tug'ruq jarayonidagi shikastlanishlar va asfiksiya (kislород yetishmovchiligi);
- bola hayotining birinchi yilda kuzatiladigan bosh miya kasalliklari – meningit, ensefalit va boshqa neyroinfeksiyalar;
- miya chayqalishi bilan birga kechuvchi bosh miya jarohatlari;
- irsiy (nasliy) omillar, ya'ni ota-onadan o'tadigan genetik moyilliklar;
- ijtimoiy-maishiy sharoitning og'irligi – mikrosotsial muhitdagi pedagogik qarovsizlik, vegetativ disfunksiya, emotsiyonal-irodaviy muhitning izdan chiqishi hamda umumiy nutq rivojlanishining to'xtab qolishiga olib keluvchi omillar.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablar ba'zida yakka holda, ko'pincha esa kompleks shaklda namoyon bo'lib, nutq faoliyatining turli tomonlarida buzilishlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Nutq buzilishlari kelib chiqish sabablariga ko'ra odatda ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1. Organik omillar bilan bog'liq nutq buzilishlari – ya'ni markaziy asab tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan holatlar.
2. Funksional nutq buzilishlari – aniqlangan anatomik yoki organik zarar yetkazilmagan, biroq psixologik, pedagogik yoki ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllangan buzilishlar.

Nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra organik va funksional xarakterga ega bo'ladi. Organik nutq buzilishlari o'z navbatida zararlanish joyiga ko'ra markaziy va periferik turlarga ajratiladi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlari markaziy asab tizimining turli qismlaridagi zararlanish natijasida yuzaga keladi. Ushbu turdag'i buzilishlarga alaliya, afaziya, dizartriya kabi nutq kamchiliklari kiradi. Bu holatlarda asosan miya po'stlog'i, subkortikal markazlar yoki miya nerv markazlarining faoliyati buzilgan bo'ladi. Periferik xarakterdagi organik nutq buzilishlari esa nutq a'zolari – artikulyatsion apparatning anatomik tuzilishidagi nuqsonlar yoki periferik nerv tizimining artikulyatsion organlarga yetkazuvchi impulslarida buzilish mavjudligiga ko'ra kelib chiqadi. Bunday holatlarga rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Bundan farqli ravishda, funksional nutq buzilishlarida nutq jarayonida ishtirok etuvchi a'zolarning tuzilishida hech qanday organik o'zgarishlar kuzatilmaydi, biroq ularning faoliyati buzilgan bo'ladi. Bu holat ko'pincha bolaning psixologik holati, noto'g'ri tarbiya, nutqiy muhitning yetishmasligi, ruhiy zarba, eshitish yoki boshqa sezgi a'zolarining yetarli darajada ishlamasligi oqibatida kelib chiqadi. Funksional nutq buzilishlariga quyidagilar kiradi:

- duduqlanish (logonevroz);
- kechikkan nutqiy rivojlanish;
- fonetik-fonematisk rivojlanishning buzilishi.

Nutqdagi buzilishlar faqat alohida tovushlar darajasida emas, balki bolaning leksik boyligi, grammatik tuzilmani o'zlashtirishi, semantik tizimni idrok etishi va muloqotga kirishish qobiliyatida ham namoyon bo'ladi. Umumiy nutqiy rivojlanishning og'ir shaklda kechikishi (ONR) kuzatilayotgan bolalarda esa bu holatlar yanada aniqroq ko'zga tashlanadi.

Zamonaviy logopediyada nafaqat nutq buzilishini tashxislash, balki bolani kompleks o'rganishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Shu sababdan, erta korreksiya ishlarini yo'lga qo'yish, nutq buzilishlarining profilaktikasi va erta aralashuv mexanizmlarini amaliyatga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Logopedik diagnostika bolaning nutqiy, psixik va umumiy rivojlanish darajasini chuqr tahlil qilish jarayoni hisoblanib, u multidisiplinar yondashuvni talab qiladi. Bu bosqichda logoped bilan bir qatorda psixolog, nevropatolog, otorinolaringolog, defektolog kabi mutaxassislar hamkorlikda ishlashlari lozim. Logopedik ishlar esa har bir bolaning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuziladi va quyidagi zamonaviy metodlardan keng foydalilanadi: o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), multimodal yondashuvlar, interaktiv metodlar, emotsiyonal-irodaviy rivojlantirish texnikalari.

So'nggi yillarda, ayniqsa, nevropsixologik va sensomotor yondashuvlar logopedik amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bolalarda nutq kamchiliklарини erta aniqlash, ularning sabablarini to'g'ri baholash va kompleks logopedik-pedagogik yondashuv asosida korreksion ishlар olib borish bolaning nutqiy faoliyatini tiklashga, tafakkurini rivojlantirishga, ijtimoiylashuvini ta'minlashga va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa bolaning kelgusidagi maktabdagi muvaffaqiyatiga, kasbiy yo'nalishiga va to'laqonli hayot faoliyatiga zamin yaratib beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalarda nutq kamchiliklari o'z-o'zidan yo'qolmaydi, aksincha, ular bolaning psixik, ijtimoiy va bilim olish faoliyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni erta aniqlash, tashxislash va mutaxassis tomonidan o'z vaqtida logopedik-pedagogik yordam ko'rsatish muhim sanaladi. Nutq buzilishlarining kelib chiqish sabablari murakkab va ko'p omillidir. Shu sababli har bir bola individual yondashuvni talab etadi. Zamonaviy logopedik yondashuvlarda kompleks tekshiruv, AKT vositalari, o'yin texnologiyalari, emotsiunal-irodaviy rivojlantirish usullari samaradorlikni oshirmoqda. Ilmiy asoslangan korreksion metodlar orqali bolalarning nutqiy, tafakkuriy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахутиной Т. В., Пылаевой Н. М. – Neyropsixologik diagnostika va korreksiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida, Moskva, 2010.
2. Власова Т. А., Лалаева Р. И. – Logopediya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, Moskva: Akademiya, 2014.
3. Левина Р. Е. – Bolalarda nutq buzilishlarining psixologik-pedagogik klassifikatsiyasi, Moskva, 1999.
4. Мастиюкова Е. М. – Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari, Moskva, 2005.
5. Селиверстов В. И. – Logopediya: Zamonaviy korreksion metodlar, Sankt-Peterburg, 2018.
6. Ismatova S., Xamidova G. – Logopediya, Toshkent: O'qituvchi, 2017.
7. Ziyayeva M. A. – Bolalarda nutqiy buzilishlarni erta aniqlash va korreksiya, Toshkent, 2021.
8. Rasulov A. T. – Defektologiya asoslari, Toshkent, 2020.
9. Vygotskiy L. S. – Psixologiya va pedagogika asoslari, Moskva, 1934.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi – Maxsus pedagogika fanidan metodik qo'llanma, Toshkent, 2020.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.